

II BO'IM. MUSIQA, RAQS, TASVIRIY SAN'AT

G'ani Xudoyev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi professori v.b.,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: xudoyevgani@gmail.com
ORCID: 0009-0004-5112-7527*

SAMARQAND BAXSHICHILIK SAN'ATI XUSUSIDA

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Samarqand viloyati hududida qaror topgan baxshichilik san'ati an'analari, yuksak iste'dod sohiblari, shoir-baxshilarning "Ustoz-shogird" merosxo'rligida qaror topgan doston ijrochiligining hududdagi mavjud ijrochilik maktablari xususida ilmiy muhohasa qilindi.*

***Kalit so'zlar:** baxshi, shoir, doston, folklor, an'ana, san'atshunoslik.*

О САМАРКАНДСКОМ ИСКУССТВЕ БАХШИ

***Аннотация.** В данной статье состоялась научная дискуссия о традициях бахшидского искусства, сложившихся на территории Самаркандской области, существующих исполнительских школах эпического исполнительства, основанных на наследии «Устаз-шогирд» талантливейших поэтов-бахши.*

***Ключевое слово:** бахши, поэт, эпос, фольклор, традиция, искусствоведение.*

ON THE ART OF BAKHSHI IN SAMARKAND

***Abstract.** This article presents a scholarly discussion of the traditions of bakhshi art that developed in the Samarkand region, the outstanding representatives of this art, and the existing local schools of epic performance formed through the ustoz-shogird (master-apprentice) tradition of succession among poet-bakhshis.*

***Keywords:** bakhshi, poet, epic, folklore, tradition, art history.*

Yangi O'zbekistonda so'nggi besh yillikda hukumatimiz tomonidan baxshichilik san'atining ijrochilik an'analari, madaniyati, hududlarga xos

repertuarlardagi doston ijrochiligi hamda baxshi-shoirlarning “Ustoz-shogird” an'analariga berilayotgan yuksak e'tibor, tahsinga loyiq.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4320-sonli Qarorining mazmun mohiyatida “Xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo'lgan baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san'atimizdagi o'rni va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash” kabi yuksak g'oya maqsad qilib belgilanganligi bilan ustuvor ahamiyatga ega [1]. Mazkur qarorning “Sohada shakllangan ijodiy maktablarning o'ziga xos ijro uslublari, “Ustoz-shogird” an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish” hamda “Baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarning ijodiy va ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash” bandlariga muvofiq, Samarqand viloyati hududida mavjud baxshichilik maktablari faoliyatini san'atshunoslik kesimida chuqur tadqiq qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Biz bilamizki, Samarqand zaminining bir qator hududlarida Po'ltan shoir, Ergash shoir, Fozil Yo'ldosh, Islom shoir kabi ulug' shoir-baxshilarning ijodiy faoliyati va ularning ijodidagi doston ijrochiligi hamda ibratli hayot mazmuni haqidagi folklorshunoslik nuqtayi nazaridan juda katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotganligi, ayni muddao. Buni nafaqat folklorshunoslik nuqtayi nazardan, balki san'atshunoslik, madaniyatshunoslik hamda musiqashunoslik rakursida ham ilmiy tadqiq etilishi va o'rganilishi zarur ko'rinadi. Ularning turli mavzularda yaratgan baxshichilik san'ati ohang namunalari kelajak avlod san'at ahli uchun yuksak meros bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Ayniqsa, shoir-baxshilarning yuksak ijodi mahsuli bo'lgan yuzlab dostonlarni jamlagan “O'zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildlik asarlari to'plamini Davlat dasturi darajasida chop etishga kirishilgani bu – an'ana va qadriyatlarimizni teran anglashdan, ma'naviy merosimizni qayta jonlantirishdan dalolat beradi.

Avvalambor, baxshi va doston atamasi xususida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, "Baxshi" atamasi mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" – ustod, ma'rifatchi; sanskritcha "bhikshu" – qalandar, darvesh ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, xalq dostonchisi talqinini beradi. Ular qo'shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan avlodga yetkazuvchi san'atkor hisoblanadi [5, 153-b]. "Baxshi" atamasi va uning etimologiyasi xususida filologiya fanlari doktori, professor I.Yo'ldoshevning "Baxshi" so'zi etimologiyasi haqida" nomlanishdagi ilmiy maqolasi ham "baxshi" atamasining badiiy adabiyotdagi mohiyati va mazmunini ochib berishda bir qadar e'tiborlidir [8].

San'atshunoslik fanlari doktori, professor, musiqashunos olim Is'hoq Rajabovning tadqiqotlarida baxshi atamasi quyidagicha: Baxshi – "doston to'quvchi, dostonlarni do'mbira, qo'buz yoki dutor cholg'ulari, shuningdek, ansambl jo'rligida ijro etuvchi" [4, 35-b], yana bir ma'nosi "Muayyan usulda kuy (qo'shiq)lar xirgoyi qilib davolovchi baxshi-shomon" [4, 35-b] tarzida ta'riflanadi.

Baxshilar, asosan, ikki toifaga – ijrochi va ijodkor baxshilarga bo'linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozidan o'rgangan dostonlarni juz'iy o'zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og'zaki epik an'ana asosida dostonning o'z variantlari, hatto ular asosida yangi dostonlar ham yaratadilar. Bunday baxshilar shoir deb ham yuritiladi. Masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Po'ltan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir va boshqa baxshi doston va qo'shiqlarni qo'biz, do'mbira, dutor kabi sozlar jo'rligida kuylaydi [5, 153-b].

Ildizi tarixan uzoq davrlarga borib taqaluvchi baxshilarning "Doston" ijrochiligi respublikamizdagi to'rt mahalliy musiqa uslubi (F.Karomatov)dagi "Buxoro-Samarqand" mahalliy musiqa uslubi kesimida Bulung'ur, Narpay, Nurato, Qo'rg'on va boshqa doston ijrochilik maktablari misolida san'atshunoslik nuqtayi nazaridan qiyosiy o'rganilishni talab qiladi. Shahar madaniyatidan farqli, mazkur hududlardagi baxshichilik an'analarning "Ustoz shogird" merosida yetib kelgan ko'hna an'analarni san'atshunoslikdagi – soz, ovoz, ohang, lad tarzida ilmiy mushohada qilish, maqsadli ko'rinadi.

Bu borada musiqashunos olim Fayzulla Karomatlining quyidagi yondashuvi, fikrimizni yanada dalillash uchun xizmat qiladi: “Buxoro va Samarqanddagi shahar musiqa hayotida baxshi roli deyarli sezilmaydi – ular odatda shaharlarda ko‘rinmaydilar. Shahardan tashqarida esa ularni ma’lum qishloqlarda uchratish mumkin. Xuddi shu baxshilar qo‘lida do‘mbirani ham an’anaviy jo‘rnavor sifatida uchratish mumkin” [2, 35-b]. Biroq “Baxshi san’ati”, shu jumladan “Doston ijrochiligi” kabi an’analar o‘tmishda ko‘hna Buxoro va Samarqand saroylarida ham qo‘llanilganligi xususidagi ma’lumotlar mavjud-ki, bu omil “Baxshi” va “Doston” ijrochiligini madaniyatshunoslik hamda san’atshunoslik ilmi nuqtayi nazaridan respublikamizning janubiy viloyatlari Surxondaryo-Qashqadaryo baxshi ijrochiligi bilan Samarqand (qisman Navoiy) hududidagi doston ijrochiligi kesimida qiyosiy o‘rganilishni quvvatlaydi.

Shu o‘rinda doston atamasining lug‘aviy ma’nosiga ham qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Doston so‘zi “tojikcha” va “o‘zbekcha” so‘zlardan olingan bo‘lib quyidagicha mazmun-mohiyat kasb etadi: “O‘zbek folklori qadimiy an‘analarining davomi o‘laroq uning turli sohalarini o‘z ichiga olgan nasriy, nazmiy va musiqiy epik asar” [4, 57-b] hisoblanadi. Unga “dostonchi”, “doston guftan”, “dostongo‘y”, “dostongo‘yi”, “dostonsaro”, “dostonsaroyi”, “dostonsoz” va boshqa o‘zbekcha va fors-tojikcha so‘zlar bilan doston ijrochisi va ijodkori tushuniladi [4, 57-b].

Uzoq tarixga nazar tashlasak, “epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago‘ylar ko‘payib borgan sari ustoz-shogirdlik an‘analari vujudga kela boshladi. Natijada XV–XVI asrlarga kelib ko‘pgina dostonchilik maktabi paydo bo‘ldi. XVII–XVIII asrlar dostonchilik taraqqiyotida jiddiy ko‘tarilish bosqichi, XIX–XX asrlar esa uning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lib, ularni Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo‘ron shoir, Jumanbulbul, Jossoq, Xonimjon xalfa, Buvi shoir, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yo‘ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Yo‘ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi kabi mashhur baxshilar kuylab kelganlar. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh

o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla Nurali o'g'li, Umar shoir, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi yetakchi san'atkorlar o'zlariga zamondosh boshqa baxshilar bilan birgalikda bu epik an'anani davom ettirdilar. Dostonchilikda qat'iy tartibga rioya qilingan: doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, to'y-hashamlar ham baxshilarsiz o'tmagan. Tinglovchilar baxshini to'rga o'tqazib, atrofida qo'r to'kib o'tirganlar" [6, 374–375-b]. Baxshilar ijodida do'mbira chertib xalq dostonlarini bir necha kun davomida ijro etish an'anasi keng urfga aylangan.

Baxshilarning doston ijrochiligi an'analarini keng o'rgangan folklorshunos olim Hodi Zarifov ijodi xususida folklorshunos olim To'ra Mirzayev quyidagilarni yozadi: "Hodi Zarif o'zbek xalq baxshilaridan "Yusuf bilan Ahmad", "Yodgor", "Ravshan", "Rustamxon", "Ochildov" kabi mashhur dostonlarni yozib olgan, shuningdek, ertak, qo'shiq va maqollar, dialektologiya va etnografiyaga oid materiallar, tarixga oid hujjat va yodnomalar to'plagan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li, Xolyor Abdukarim o'g'li, Ahmad baxshi Matnazar o'g'li, Bola baxshi kabi xalq san'atkorlari, ular ijodi haqida ilmiy maqolalar yozgan. O'zbek eposi masalalari, baxshilik san'ati, xalq shoirlarining epik repertuarining g'oyaviy badiiy mundarijasi, o'zbek folklorshunosligining asosiy taraqqiyot yo'llarini tadqiq etishga alohida e'tibor bergan" [7].

"O'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o'zbeklaqay va boshqa shunday markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi" [6, 374–375-b].

Davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov o'z davrida (1975-yil, 15-noyabr) Samarqand zaminidan yetishib chiqqan yetuk baxshilar xususida shunday fikrlarni bayon etgan: "Po'ltkan shoir, Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir ming yillar ichida bitta, ikkita tug'ilishi mumkin. O'ttizlab dostonlarni ijod qilgan va ushbu dostonlarning har bir satrini yodda saqlay olgan ulug' zotlar tarixning faxridir.

Shuning uchun ham ularning nomi mangudir, ijodi abadiy yashaydi va asrlar tarixini mash'al bo'lib yoritib turadi" [3, 4-b].

O'z davrida (1975-yil, 25-avgust) akademik Vohid Abdullayev Po'ltan baxshining yuksak qobiliyati xususida quyidagi fikrlarini bildirib o'tgan: "Dunyoda baxshilar, jirovlar ko'p. Biroq hech biri o'zbekistonlik, samarqandlik, xatirchilik baxshilarga teng kela olmaydi. Chunki, Po'ltan shoir 75ta dostonni satrma-satr yod bilgan. Biri ikkinchisini takrorlamaydi. Uning ulkan so'z san'atkoriga aylanishi bor mo'jiza, Yaratganning in'omi. Meni ham ilhomimga ilhom qo'shgan, adabiy faoliyatimga qanot bergan bu ulkan so'z ustasini yoshligimdan qattiq tadqiq qilaman. Po'ltan shoirdagi iste'dod meni hamisha hayratga tushiradi. Ko'rinishidan boladay sodda, ammo xotirasining kengligi, doston kuylaganda musiqiy ohangga berilib, o'zini unutib, so'z daryosida suzib, dilidan chiqayotgan g'oya, maqsad, voqealar silsilasi, asar qahramonlarining aytishuvlari – bularning hammasi ayni paytda birin-ketin tizilib kelishlaridan har qanday tinglovchi ham: "Buncha so'zlar qayerdan keladi-a", – deya hayratlanishi aniq. Shuning uchun buyuk baxshi shoirga bo'lgan o'zimdagi hurmat-e'tiborni hech qachon yo'qotmayman" [3, 6–7-b].

"Odatda, oddiy baxshilar besh o'nta, eng qobiliyatlilari esa, o'ttiz, qirqtagacha asarni yoddan kuylaganlar. Po'ltan bularning hammasidan farq qilib, yetmishdan ortiq dostonni maroq bilan ijro etar edi" [3, 6–7-b].

Mavzu kesimida Samarqand hududidagi Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on hamda Navoiy viloyatiga qarashli Nurato, Xatirchi hududlarida qaror topgan baxshichilik maktabi namoyandalarining yuksak iste'dodi hamda "Baxshi san'ati" va "Doston ijrochiligi" xususida muxtasar mulohaza yuritdik.

Respublikamizning janubiy vohalari (Surxondaryo, Qashqadaryo)da baxshichilik maktablarining "Ustoz-shogird" vorisligiga tayangan holda ijrochilik an'analari qayta tiklash va uni rivojlantirish borasida Ustoz-baxshilarni shogird tarbiyalash ishlariga qaratilayotgan yuksak e'tibor, ayni muddao. Bunday iste'dodli yosh baxshilarni yetishtirish ishlariga katta ahamiyat qaratilayotgan bir vaqtda, azaldan Samarqand viloyati va Navoiy viloyatining ayrim hududlari (Bulug'ur,

Nurato, Xatirchi)da ham mavjud bo'lgan baxshichilik maktabi an'analarini san'atshunoslik kesimida ohang-lad tuzilmalarini ilmiy tahlil qilish, baxshilar ijodiy merosida toblangan Doston ijrochilik an'analarini tiklash va yanada rivojlantirish, uning zahirida yosh avlodni dostonlardagi – mardlik, Vatanga sadoqat, halollik, ezgulik kabi yuksak g'oyalar bilan tarbiyalash maqsad vazifamiz bo'lmog'i lozim. Bugungi kunda yosh avlod uchun baxshichilik maktablari tarbiya vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4320-sonli Qarori. 2019-yil 14-may. <https://lex.uz/ru/docs/4380951#4381149>.
2. Karomatov F. O'zbek do'mbira musiqasi. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, 1962. – 56 b.
3. Po'ltan U. Qo'llarida sayrab turgan sozmidi... [To'plovchi va nashrga tayyorlovchi Ulug'bek Jumayev]. – Toshkent: Ijod nashr, 2021. – 360 b.
4. Rajabov I. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati. – Toshkent: Tamaddun, 2023. – 230 b.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan ("B" harfi). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan ("D" harfi). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi.
7. Internet saytlari: T.Mirzayevning "Hodi Zarif" nomli maqolasidan. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/hodi-zarif-1905-1972/maqola> 2016-yil 3-fevralda ziyouz.uz saytiga joylashtirilgan.
8. Yo'ldoshev I. "Baxshi" so'zi etimologiyasi haqida // O'zDSMI xabarlarini jurnali. – Toshkent, 2019. – №1(9). – B.3–5.